

TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziysi 1/2024
ilmiy uslubiy jurnal*



Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.

Farzandlarimizni harto monlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiy parvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar merosini o'r ganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi" dan

BOSH MUHARRIR**Shavkat Safarovich Sharipov -**

pedagogika f.d., professor

MUHARRIR O'RINBOSARI**Farrux Aqchayev -** tarix f.f.d.,

dotsent

MAS'UL KOTIB**Abdug'affer Abdurahmonov -** tarix f.b.f.d. PhD**TARJIMONLAR:****Zubayda Jumayeva**-filologiya

f.b.f.d., dotsent (rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov-filologiya

f.b.f.d. (rus tili bo'yicha)

Anora Jabborova -filologiya

f.b.f.d., (ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova - katta

o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha)

Musahhihlar**Feruza Jumayeva**- filologiya f.b.f.d.

dotsent.

Murodulla Jo'rayev-

filologiya f.b.f.d.

SAHFALOVCHI**Zarina Abdusattorova****Muassis** - Jizzax davlat

pedagogika universiteti

Jurnal yilda 4 marta

(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos
va ma'lumotlar aniqligi uchun
mualliflar mas'ulidirlar.Jurnaldan ko'chirib olinganda,
manba qayd etilishi shart.**TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Anatoliy Sagdullayev, tarix f.d., akademik

Komiljon Tojiboyev, biologiya f.d., akademik

Andrey Zuyev, Novosibir DU Guumanitar instituti professori, tarix f.d. (Rossiya)

Stiven Korbet, Portsmud universiteti, Tilla va amaliy tilshunoslik yo'naliishi professori (Buyuk Britaniya)

Seyko Wazake, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)

Donina Lyudmila, Sank-Peterburg DU dotsenti, filologiya f.n. (Rossiya)

Jakelin Duglas, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)

Himmet Karadal, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)

Tuba Yilmaz, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)

G'ayrat Qodirov, biologiya f.n., dotsent

Botir To'xtamishev, texnika f.n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov, sotsiologiya f.b.f.d., dotsent

Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika f.d., professor

Usmonjon Qosimov, filologiya f.d., professor

Abdug'affer Mamatov, filologiya f.d., professor

Umrzoq Jumanazarov, filologiya f.d., professor

Faniya Axmedshina, tarix f.d., professor

Baxti Ochilova, falsafa f.d., professor

Hamid Meliyev, pedagogika f.n., professor

Xudoybergan Mavlonoval, biologiya f.d., dotsent

Qo'chqor Hakimov, geografiya f.n., professor v.b.

Mo'min Hoshimxonov, falsafa va filologiya f.d.

Furqat Axmedov, pedagogika f.n., professor

Akbar Saitkasimov, falsafa f.d., professor

Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f.d., professor

Abdunazar Nurmonov, pedagogika f.d., professor

Rustam Abdurasulov, psixologiya f.d., dotsent

Marat Sultonov, kimyo f.d., professor

Raximboy Yarmatov, pedagogika f.d., dotsent

Ilyos Islamov, tarix f.d., dotsent

Muxtorqul Pardayev, tarix f.n., dotsent

Rabbim Yusupov, texnika f.n., dotsent

Oleg Kim, filologiya f.n., dotsent

Abduvali Shamshiyev, iqtisod f.n., dotsent

Yulduz Karimova, filologiya f.n., dotsent

Kamoliddin Zoirov, pedagogika f.n., dotsent

Sherali Abduraimov, pedagogika f.b.f.d., dotsent

Feruza Jumayeva, filologiya f.b.f.d., dotsent

Bobomurod Toshboyev, falsafa f.b.f.d., dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrdagi 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131**MANZIL:** 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino**TELEFON:** (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44**FAKS:** (99872) 226 46 56**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI****MATBAA BO'LIMI**

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy

2024-yil 25-mart kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI

Sh.S.Sharipov, S.T.Yaxshiliqov Oliy ta'limga sur'iy intellektni joriy etish zaruriyati: tarixiy asoslar va zamonaviy tendensiyalar.....	4
--	---

TAQVIM:

U.Qosimov, D.Elmuradov Tilimiz va adabiyotimizning benazir yalovbardori.....	7
---	---

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Sh.S.Sharipov, V.Q.Raxmonova Uzlusiz ta'lim tizimida uzvilylikni ta'minlashning pedagogik muammolari	10
---	----

X.R.Sanakulov, G.O.Abduraimova, Sh.Y.Ishmetova Boshlang'ich ta'limda "STEAM – ta'limi" yondashuvi asosida "texnologiya" fanini o'qitishning asosiy pedagogik tamoyillari	13
---	----

X.A.Meliyev, R.X.Bo'Itakova, Sh.B.Qosimova Oliy ta'limda STEAM ta'lim tizimini tashkil etish va uning imkoniyatlari	19
--	----

M.X.Shomirzayev Oliy o'quv yurtlari talabalarida texnologik kompetentlikni rivojlantirishning klasterli modeli	21
---	----

R.T.Umarov, J.B.Orishev Mustaqil ta'limi tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	25
---	----

A.B.Musoyeva Tadqiqot kompetensiyasini oshirish bo'yicha AQShda orttirilgan tajriba va uni amaliyotga joriy etish	28
--	----

U.S.Musayev Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarining innovatsion tomonlari: qiyosiy tahlil.....	32
---	----

L.A.Xalmamatova Pedagogik texnologiyani loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.....	36
---	----

A.J.Usmanov Axborot texnologiyalariga oid bilimlarga asoslangan ta'lim raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omilidir	39
---	----

A.M.Mirzaakbarov IQ (intelligence quotient) masalalarini yechishga o'rgatish orqali bo'lajak o'qituvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	43
--	----

AMALIY FANLAR

I.Jumaniyazov Baxshi va jirovlarning asosiy cholg'u asboblari	46
--	----

N.O.Berdiyev Bo'lajak arxitektor va dizaynerlar faoliyatida grafik tasvirlashning o'rni va ahamiyati	48
---	----

S.R.Xalikov Yashil instituti tuzilmasini yaratgan, ekologik toza va barqaror arxitektura loyihalari asoschisi Kisho Kurokava hayoti va ijodi	53
---	----

B.E.Qodirov Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining mustaqil ta'limi tashkil etish imkoniyatlari	57
--	----

K.T.Мухамедзиянов О вокальном цикле "сюзане" композитора Г. Мушеля на стихи узбекской поэтессы Зульфии Исраиловой	60
--	----

E.Z.Nurmatov Talabalarni ommaviy jismoniy tarbiya va sportga jalb etish mexanizmlarini xorij tajribalari asosida takomillashtirish	63
---	----

IJTIMOIY FANLAR

A.Saitkasimov, A.Idiboyev Yangi O'zbekistonda inson manfaatlari va qadr-qimmati ustuvorligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	68
---	----

T.M.Burxanov Harbiy-kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda bo'lajak ofitserlarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning o'rni	71
---	----

Ф.А.Ахмедшина Халяль туризм: новая концепция туристского бизнеса в мире и Узбекистане	76
--	----

A.X.Amonlayev Ibrat kategoriysi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili	80
---	----

X.E.Boboqulova Falsafiy dunyoqarash dunyoqarashning eng yuqori turi sifatidagi mantiqiy tushuncha ..	83
---	----

A.Boltayev Sovet tuzumi davrida O'zbekistonda sud tizimning shakllanishi va rivojlanish tarixi	88
---	----

D.U.Jumanazarova Axloqiy madaniyat va shaxs ma'naviyati tushunchalarining ijtimoiy-pedagogik tavfsi	91
--	----

Z.A.Bozorboyeva Demografik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik muammolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tamoyillari	94
---	----

B.S.Turdiyev Jamiyat ideosferasida milliylik va umuminsoniylik dialektikasi	98
--	----

R.R.Nurqulova Muhammad Shayboniyxon	102
--	-----

S.U.Kistaubayev Amaliyot va texnologiya darslarida bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimlarini oshirish usullari	106
--	-----



N.E.Tog'ayev Islom dinning xalqimiz ma'naviyat va madaniyat rivojida tutgan o'rni..... 109

FILOLOGIYA FANLARI

F.R.Ravshanov Shoh Hakim Xolis Toshkandiy	113
A.C.Мусаев О качестве переводов русских слов и фразеологизмов на узбекский язык	117
N. D. Hasanov Masnaviy va Mabdai nur	119
G'.O.Xolbutayev Kulgiga asoslangan folklor janrlarning o'rganilishi	124
X.Xolmurodov, U.Mustanov Alisher Navoiy she'riyatida ishqiy obrazlar muvoziyligi.....	127
N.Q.Bo'riyeva J.R.R.Tolkien asarlarining zamonaviy intertekstda aks etishi.....	120
A.L.Kenjayev A.S.Pushkinning "... ga" she'ri tahlili.....	134
3.Ш.Жумаева Структурно-семантические типы фразеологизмов	137
J.A.Lutfullayev "Mungli ko'zlar" romanining mavzu ko'lami va tasvir uslubi	139
D.E.Kariyeva Teaching english vocabulary to students of economic universities.....	144

TABIY VA ANIQ FANLAR

G.I.Sayfullayeva., M.H.Norqulova Astronomiya darslarining samaradorligini oshirishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish	148
M.R.G'o'dalov, N.D.Qosimov Sangzor havzasida tarqalgan tuproq turlari va ularning xususiyatlari	152
F.P.Raxmonkulov O'quv jarayonini tashkil etishda onlayn xizmatlardan foydalanish.....	155
P.P.Кучкарова Кольчато -цепных перегруппировках лигандов при комплексообразовании с ионами переходных металлов	158
F.Q.Tugalov Fizika va biologiya fanlari integratsiyasi	162
S.S.Alikulov Maktab fizika kursida robototexnika asoslarini o'rganish	164
H.T.To'rayeva Organik kimyonni klaster usulida o'qitish metodikasini takomillashtirish	168

YOSH TADQIQOTCHILAR

O'.H.Mavlonova Xushmuomalalik me'yorlari va urfga kirgan odatlar.....	173
X.A.Usmanova O'zbek she'riyatida ramzlar tasnifi.....	180
K.X.Abduvaliyeva Kimyoviy masalalar yechish usullaridan foydalanishning ahamiyati.....	184
Sh.R.Bobobekov Kiberhujum va uning salbiy ta'sirlarini oldini olish yo'llari.....	187
Sh.A.Jo'rayev Erkin Vohidov so'z olami va ijod saboqlari	192
G.B.Nafasova Praxeological approach to development of logical competence of future physics teachers	195
M.B.Qodirova Hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlarning ingliz tiliga tarjimasи xususida	199
Sh.N.Avazbekova O'quvchilarda zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy xabardorlik kompetensiyasini rivojlantirish.....	203
A.A.Якунина Проблема определения термина концепт в современной лингвистике	206
M.Ш.Яхшиева Занятый аэробикой и её всестороннее влияние на организм студенток	211
F.X.Dadaboyeva O'quvchilarga ingliz tilini o'qitish jarayonida og'zaki nutqni shakllantirishning nazariy asosları xususida	215
R.I.Rasulova Ekologik ta'liming samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	220
Y.A.Ismatillayeva Ekologik tarbiyaga oid tarixiy materiallardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.....	223
О.Ф.Ахмедов Формирование межнациональной культуры в начальных классах.....	227
M.Sh.Shotirova Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishda tarbiya fanining o'rni	231
G.X.Norbekova Afsun va unga oid birliklarning madaniyatlar kesishuvidanagi o'rni.....	235
Sh.T.Mirzamatova O'quvchilar shaxsiyatining psixologik xususiyatlari orqali kimyo fani bo'yicha bilimlarni optimallashtirish	239
Z.Yulchiyeva Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'llimi o'yinlardan foydalanish....	241



SHOH HAKIM XOLIS TOSHKANDIY

Fazliddin Ravshanovich Ravshanov – s.f.d.

Annotatsiya: Mazkur magola XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida yashab o'tgan qissanavis shoir Shoh Hakim Xolis Toshkandiy (Farg'oniy) hayoti va ijodini yoritishga bag'ishlanadi. Shoir haqida zamonaviy manbalarda ma'lumotlar kam uchraydi. Muallif maqolada shoir hayoti va ijodini bir qator qo'lyozma manbalar va uning bizga qadar yetib kelgan o'z qalamiga mansub asarları vositasida yoritib berishga harakat qilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена освещению жизни и творчества поэта новеллиста Шаххакима Холиса Ташканди (Фергани), жившего во второй половине XVIII – первой половине XIX века. Сведения о поэте в современных источниках встречается редки. В статье автор попытался расскрыть жизнь и творчество поэта через ряд дошедших до нас рукописных источников и собственных произведений.

Abstract: This article is devoted to highlighting the life and work of the short story poet Shahkhakim Kholis Tashkandi (Fergani), who lived in the second half of the 18th - first half of the 19th century. Information about the poet in modern sources is rare. In the article, the author tried to reveal the life and work of the poet through a number of handwritten sources that have reached us and his own works.

Kalit so'zlar: XVIII asrning ikkinchi yarmi, XIX asrning birinchi yarmi, Turkiston, Xolis Toshkandiy, hayoti va ijodi, qissanavislik, "Shoh Jarir qissasi", "Yusuf va Zulayho", "Ibratnama", "Imomlar qissasi", "Qissai Muhammad Hanifa", "Qissai Fotimai Zahro", "Qissai Ayyub", "Mavludnama", "Me'rojnama", "Qissai fazilati ramazon", "Qissai hazrati Ibrohim va Ismoil alayhissalom.

Ключевые слова: вторая половина XVIII века, первая половина XIX века, Туркестан, Холис Ташканди, его жизнь и творчество, написание рассказов, "Повесть о Шахе Джарире", "Юсуф и Зулайха", "Ибратнама", "История имамов", "История Мухаммеда Ханифы", "Киссай Фатима Захро", "Киссай Айюб", "Маулуднама", "Меарожнама", "Киссай фазилати Рамадан", "Киссай хазрат Ибрагим и Исмаил алейхиссалам".

Keywords: second half of the 18th century, first half of the 19th century, Turkestan, Kholis Tashkandi, his life and work, writing stories, "The Tale of Shah Jarir", "Yusuf and Zulaikha", "Ibratnama", "History of the Imams", "History Muhammad Hanifa", "Kissai Fatima Zahro", "Kissai Ayyub", "Mauludnama", "Mearozhnama", "Kissai fazilati Ramadan", "Kissai hazrat Ibrahim and Ismail alaihis salam".

Butun XIX asr Turkiston hayotida ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, parokandalik hukm surgani kabi davr adabiy hayotida ham hajv, satira, yumoryo'nalishlari keng tarqalgan edi. Tanqidiy ruhiyat bilan sug'orilgan asarlarda xalqqa zulm o'tkazayotgan, turmushni og'irlashtirayotgan mulkdorlar, qonli urush-talashlarga tortilgan hukmdorlar, ilm-ma'rifatsiz, maqsadsiz, e'tiqodsiz, muhabbat va sadoqatsiz, yolg'onchi va muttaham, bir so'z bilan aytganda jamiyat manfaatlarini nazar-pisand qilmaydigan insonlar guruhi nishonga olinar, ziyoli ahli qanday bo'lmasin xalqni tanazzuldan chiqarish kerakligini tinimsiz ta'kidlardi. Shu tufayli so'nggi davr bir qator adabiyotshunoslar hajviy satirik yo'nalishni XIX asr o'zbek adabiyotining asosiy yetakchi yo'nalishlari qatorida qayd etadilar.

Biroq XIX asr Turkiston adabiy muhitida mumtoz an'analar, motivlar ham salmoqli

o'rin egallaydi. Mazkur yo'nalishda hayotiy va ilohiy muhabbat, ilm-ma'rifatga targ'ib etish, el-yurt hayoti, turmush uchun qayg'urish, xalq farovonligi, orzu-umidlari, adolatli hukmdor va boshqaruv, qahramonlik, vatanparvarlik va mustahkam e'tiqod g'oyalari va motivlarida ko'plab asar yaratilgan.

XVIII asrlardan boshlab mana shunday motivlarda yaratilgan ko'plab qissalar borki, XIX asrlarda ularning katta qismi xalq kitoblariga aylanib ulgurgan edi. Bunday qissalarning xalq uchun ahamiyatli tomoni F.Engels ta'kidlagani kabi ular "og'ir mehnatdan so'ng, charchabhorib kechqurun uyiga qaytgan dehqonning hordig'ini chiqarishga, ko'nglini ochishga, ruhlantirishga, uni o'z mashaqqatli mehnatini unutishga majbur qilmoqqa, uning sertosh dalasini muattar hidlar anqib turgan Bog'i Eram qilib ko'rsatishga, u hunarmand ishxonasini ishlayverib holdan toygan yordamchisini,

ko'rimsiz kulbasini go'zallik olamiga, oltin saroya aylantirib ko'rsatishga, uning besunaqay xotinini go'zal malika qiyofasida ko'rsatishga, uning ma'naviy tuyg'ularini rivojlantirishga, uni o'z kuchi, o'z ozodligini anglashga majbur qilmoqqa, undagi mardlik va Vatanga muhabbat hislarini uyg'otishga"¹ xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Ta'kidlash kerakki, keyingi vaqtarda xalq kitoblari turkumidan qaraladigan qissalarning juda ko'pchiligi ularni dastlab shu shaklda yaratgan o'z mualliflariga egadir. Fazliy Namangoni o'z tazkirasida bir qator qissanavis shoirlar haqida ma'lumotlar berib o'tgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida yashab o'tgan Shoh Hakim Xolis Toshkandiy ham mana shunday qissanavis shoirlardan biri bolgan edi.

Sobiq sovet davri adabiyotshunosligida epik adabiyot va uning taraqqiyoti ko'plab olimlarimiz tomonidan chuqur taddiq etildi. Lekin qissanavislari hayoti va ijodi hamma vaqt ham to'laligicha o'rganilgan emas. Jumladan, Xolis kabi ko'plab shoirlar faqat o'sha davr adabiy oqimida bo'lganlar qatorida sanab o'tiladi, xolos. Akademik V.Abdullayev ham XIX asrning o'ttalarida yashagan Amiri, Ado, Fazliy, Xotif, Hijlat, Nola, Munshiy, Xoja, Ramziy, Rindiy, va Kasratlar qatori Xolis nomini tilga olib o'tgan². Albatta, ularning hayoti va ijodi o'rganilmaganligi o'sha davrda diniy e'tiqod va milliy masalalarga aloqador ijod sovet mafkurasiga muvofiq kelmaganligi bilan ham izohlanadi. Shunga qaramay V.Abdullayev Xolis Toshkandiyini XIX asrning 40-yillariga qadar yashab, asosan, diniy-didaktik ruhda qator qissalar, muxammaslar yaratgan shoirlardan biri ekanligini qayd etib o'tgan³.

Xolis Toshkandiy haqida bizning kunlarga qadar juda kam ma'lumotlar yetib kelgan. Asarlari keng tarqalgan bo'lishiga qaramasdan, uning hayoti va ijodi haqida ko'proq o'zining qalamiga mansub asarlardan bilish mumkin.

Xolis bu shoirning taxallusi hisoblanadi, uning asl ismi esa Shoh Hakim yoki Hakim bo'lgan. Xalq o'rtaida hozirda ham mavjud bo'lib, arab yozuvidagi dastlabki savodxonlikni rivojlantirishda zamonaviy o'zbek tiliga muvofiq qulay qo'lyozma sifatida va hatto

bir qator udumlarda foydalanilayotgan ba'zi asarlari Hakimxoja Xolis qissasi nomi bilan tilga olinadi.

Xolis "Yusuf va Zulayho" nomli qissasida o'z ismidan xabar berib, jumladan, quyidagicha yozadi:

*Va lekin asl otim Shoh Hakimdur,
Atom, anom avval qo'y'on, qadimdur⁴.*

Lekin tojik adabiyotshunosi U.Karimov Mirzo Sodiq Munshiyning "Dahmai shohon" asari bo'yicha kuzatishlar olib borayotib, ushbu asarni Usmonxo'ja Xolis nomli ijodkor fors-tojik tilidan turkiyga tarjima qilgan, degan fikrni bildiradi. Tadqiqotchi G.Axrorova esa bu fikr noto'g'ri ekanligini o'zining "Somiyning "Dahmai shohon" asari" nomli maqolasida isbotlashga harakat qiladi⁵. Ammo ushbu maqolada ko'rsatilgan uch asar: "Dahmai shohon" ("Ibratnama"), "Risolai arvo", "Qiyomatnama"lar aslida Xolis qalamiga mansub bo'lsada, ularning birortasida Xolis nomi tilga olinmaydi, balki faqat asarlarda keltirilgan muxammaslarda Xolis taxallusini ko'rish mumkin. Lekin boshqa joylarda saqlanayotgan asarlar nuxxalarida yoki mazkur qissalar to'plam sifatida keltirilgan jildlarda Shoh Hakim Xolis hayotiga bog'liq ayrim qisqa lavhalarga duch kelish mumkin.

Xolisning boshqa asarlaridan ham hayoti va ijodiga oid ayrim ma'lumotlar uchraydi. Uning "Yusuf va Zulayho" qissasining hozirgi kunda O'zR FA Sharqshunoslik instituti hamda SamDU ilmiy kutubxonasi qo'lyozmalar bo'limida saqlanayotgan nuxxalari shoir haqida anchagina ma'lumotlar bera oladi. Asar debochasida muallifo'z hayoti va ijodito'g'risida to'xtalib o'tgan. Uning bergen xabariga ko'ra ota-bobolari asli Sayram (Saryom - hozir Qozog'istoning Chimkent viloyatiga qarashli, Toshkent yaqinida joylashgan qishloq)da yashaganlar. "Yusuf va Zulayho" qissasining bir nusxasida shunday baytlar bor:

*Ulug' bobolarim Saryom elidur,
O'shal Saryom alarni manzilidur⁶.*

Xolis o'z ajdodlari haqida qisqa, lekin juda muhim ma'lumotlar keltiradi. Shu asosda biz bu shoirni ulug' mutafakkir Ahmad Yassaviy avlodlaridan, deyishimiz mumkin:

¹ Энгельс Ф.Немис халқ китоблари. -Т.:Ўздавнашр, 1966. 98 б.

² Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-жилд. -Т.:Ўқитувчи, 1964. -Б 172.

³ Ўша манба. 383 б.

⁴ Юсуф ва Зулайхо. СамДУ илмий кутубхонаси нодир китоблар бўлими. Инв. рақами: 824261. 2-с.

⁵ Аҳророва Г. Мирзо Азим Сомийнинг "Дахмаи шоҳон" асари//Адабий мерос. -Т.: 1990. -№1. -Б 48.

⁶ Юсуф ва Зулайхо. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлпёзмалар бўлими. Инв. рақами: 8902. -С 3.

Nechuk man odamiy bir omu xomman,
Rasolar ichra bilsang notamomman.
Nasabda erdim Ismoil Atoyi,
So'zumda bo'lmag'ay yo Rabb xatoyi.
Alar avlodи Muhammad Hanafiya,
Etarlar nisbatin Sayyid Aliya⁷.

Ismoil Atoyi to'g'risida Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Mavlono Atoyi ta'rifida to'xtalib o'tgan. Adabiyotshunos I.Saloхiddinov ta'kidlaganidek, "Demak shoir Xolisning nasl-nasabi xalqimizning shuhratli farzandi – Alisher Navoiy hurmati va maqtoviga sazovor bo'lgan Mavlono Atoyi va ulug' shayx va faylasuf shoir Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Keltirilgan she'rning uchinchi baytidan ma'lum bo'ladiki, Yassaviylar avlodи Muhammad ibn Hanafiy – Abulqosim Muhammad ibn Ali ibn Abu Tolibdan boshlangan ekan"⁸. Yuqoridagi baytlar mazkur qissaning birinchi sahifalari omon qolgan barcha nusxalarida uchraydi.

Shoh Hakimlar oilasi keyinchalik noma'lum sabablarga ko'ra butunlay Toshkentga ko'chib o'tgan. Ammo XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Toshkent va Chimkent atroflaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot tanazzuli va Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi hamda Qozoq xonliklari o'rtaсидagi nizoli talashuv jarayonlari ko'p aholining qal'ali shaharlarga ko'chib o'tishiga sabab bo'lganligini ham e'tiborda tutishga undaydi. Bu urushlarda shaharlar atrofidagi qishloqlar katta talafotlar ko'rgan⁹.

Oila tarkibi haqida xabar bera turib, u oila ko'pchilikdan iborat bo'lgani, farzandlarning ota-onalarga mehr-oqibatli bo'lishgani, ularga duogo'ylikda hamjihatlik bilan yashaganlarini qayd etadi:

*Eduk barcha atolarga duogo'y,
Barimiz hamjihat ham erdi yakso'y¹⁰.*

Shoirning qayd etishicha, ular ota-onalaridan uch o'g'il va uch qiz bo'lishgan. Ota-onalar bilan ular ko'proq Toshkentda hayot kechirishgan. Bu davr hali Shoh Hakim, uning aka-uka, opa-singillari tarqalib ketishmagan bir davr bo'lgan:

Atodin uch o'g'ul erduk ham uch qiz,

Yana Shosh shahrini farzandidurmiz¹¹.

Bundan so'nggi hayoti to'g'risida Xolis g'oyatda qisqa to'xtalib o'tadi. Chunonchi, bir qancha vaqtdan so'ng u Farg'onaga ketganligi to'g'risida quyidagi baytlarni keltiradi:

*Vale Farg'ona bo'ldi manga manzil,
Bu manzilda bo'lub erdim necha yil¹².*

Xolisning Farg'onada "necha yil" bo'lishining sababi balki ilm olish masalalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ijodi yoshligidan, Toshkentdaligidayoq boshlangan shoir, balki Farg'ona va Qo'qon adabiy muhitida o'z o'rnni izlagan. Zero, bu vaqtarda ushbu hududda ijodkorlarga ozroq bo'lsada oqibat ko'satish madaniyati saqlab kelingan.

Taxminimizcha, Xolisning oilasi va farzandlari bo'lmasan. "Yusuf va Zulayho" qissasida u o'zidan keyin qolar bir "duogo'y"i (fikrimizcha, farzand nazarda tutilmoxda) yo'qligidan xabar beruvchi satrlarni yozib goldirgan:

*Fano bo'lsam agar dunyo yuzidin,
Qilur pinhon mani xok el ko'zidin.
Bilinglar yo'q erur manga duogo'y,
Mani ruhim'a bo'lmas sarf bir mo'y¹³.*

Shoh Hakim o'zining Xolis taxallusi haqida ham ba'zi ma'lumotlarni keltiradi. Bir qancha asarlari nomini sanab, ularni el-xalqning tilak va istaklariga ko'ra xolis Alloh yo'lida yozganligini ta'kidlab o'tar ekan, shunday deydi:

*Ki ondin o'zima Xolis qo'yub ot,
Borisi bir kishidin, ey oqil zot¹⁴.*

Shoh Hakim ijod qila boshlagan vaqtlaridanoq Xolis taxallusini qo'llagan va asarlarining barchasini shu taxallus bilan e'lon qilgan. Lekin u shoir sifatida Toshkentdalik vaqtidayoq tanilgan bo'lishi kerak. Chunki kitoblaridan nusxalar ko'chirgan kotiblar (bugungi fondlarda shoir asarlarining 60 dan ortiq qo'lyozmalari va 50 dan ortiq toshbosmalari mavjud) turli o'rnlarda asar muallifi Xolis Toshkandiy (ayrim o'rnlarda Shoshiy) ekanligini qayd etadilar.

Shuningdek, Xolisning bir qator asarlari uning Farg'onada yashagan davri bilan ham muvofiq keladi. Chunki bu asarlarda shoir shu

7 Ўша манба. 3-с.

8 Салоҳиддинов И. Буюк Яссавийнинг муносаб вакили//Зрафшон. 1995, 25 сент.

9 Тоҳирор Қ. XVIII-XIX асрлар ўзбек ва туркман киссаларининг поэтикаси//Ўзбек классик ва совет адабиётида жанр ва услуб масалалари. -Самарқанд, 1985. 10-30 6.

10 Юсуф ва Зулайхо. СамдУ илмий кутубхонаси нодир китоблар бўлими. Инв. рақами: 824261. 1-с.

11 Ўша манба. 1-с.

12 Ўша манба. 1-с.

13 Юсуф ва Зулайхо. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўллэзмалар бўлими. Инв. рақами: 8902. 2-с.

14 Ўша манба. 2-с.

hududlardagi ba'zi tarixiy voqealar, tarqalgan rivoyatlarni qalamga oladi va asarni yaratish davomida aholi vakillari mazkur voqe'likni qissa qilib berishni so'raganlarini ta'kidlaydi. Masalan, "Ibratnama" asari Qo'qon shahridagi "Dahmai shohon" mozori haqidagi rivoyatlar bilan, "Shoh Jarir qissasi" Koson, Qubo (Quva), Aksi shaharlari va Buvayda (aslida Bibi Ubayda) da ilk islomlashuv davrlari bilan bog'liq yuz bergen voqealar bilan bog'lanadi.

Shoir hayotining Farg'ona davri ancha og'ir kechgan. Qissalarda keltirilgan ko'plab muxammaslar borki, ularda ijodkor ba'zan o'z nochorligidan, hatto yaxshiroq turar joyi ham yo'qligidan noluvchi satrlarni bitib qoldirgan.

Xolisning tug'ilgan va vafot etgan yillari to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Shu sababli aynan qaysi yillarda yashaganligini aytish qiyin. Ammo ba'zi dalillar uning hayoti haqidagi fikrlarimizga oydinlik kirita oladi. Masalan, "Yusuf va Zulayho qissasi"ning bir nusxasida:

*Xabar olsam mani yoshim yetibdur,
Payg'ambarni yoshidin ham o'tibdur¹⁵,*

degan baytlar mavjud bo'lib, kitobning 138-sahifasida kotib asar kitobati 1843 (hijriy 1259) yilda amalga oshirilganini yozib qoldirgan. Shundan bir necha yil keyin ko'chirilgan boshqa bir nusxasida esa:

*Xabar olsam mani yoshim yetibdur,
Yigitlik mavsumi mandin o'tibdur¹⁶,*

kabi baytlar bo'lib, ular Xolisning hayoti XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida kechganligiga ishora qiladi. "Payg'ambar yoshidan o'tganlik" bir-ikki yilni o'z ichiga olsa, asar yozilganda shoир yoshi 64-65 larda bo'lishi oydinlashadi. Kitob tartib berilishi vaqtini shoир hayotligi davri deb olinganda esa u 1778-1780-yillarda dunyoga kelgan deyish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari shoир asarlarining ba'zi nusxalariga hijriy 1222-23-yillar (milodiy 1807-1808-yillar) sanalari qo'yilgan¹⁷. Bu shoirning 20-25 yoshlaridayoq qissanavis sifatida tanila boshlaganidan xabar beradi.

Xolis asarlari butun XIX asr davomida juda ko'plab nusxalarda ko'chirilgan. Ko'pchilik qismi shu asrning 60-70 yillarigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi.

XVIII-XIX asrlarda Xolis taxallusi bilan

asarlar yaratgan yana bir necha ijodkorlar ma'lum. Masalan, Sulton Muhammad Davoni - Xolis ham shu asrlar oralig'ida yashab, ijod qilgan¹⁸. Shoир Xolis Afandi yoki Muhammad Xolis Afandi ham shu davrlarda hayot kechirgan. Yaqubxoja ibn Ibrohimxoja Xolis ham shu davrlarda yashagan shoirlardan bo'lib, 1880-yilda Muhammad Rahimxon buyrug'i bilan Xivada uning devoni kitobat qilingan. Lekin Xolis Toshkandiying asarlari ham til, ham mazmun, ham motivlar nuqtai nazaridan ular asarlaridan farqlanib turadi.

Xulosa qilib aytganda, 60 yildan ko'proq umr ko'rgan shoир, o'zi ta'kidlagani kabi o'z bobolari izidan borib, qator badiiy asarlar yaratib qoldirdi. Ular orasida qissalar va muxammaslar salmoqli o'r'in egallaydi. Adib yaratgan qissalarni yagona bir xususiyat birlashtirib turadi. Bu diniy didaktika bo'lib, bunda e'tiqod, diniy aqidalar, inson axloqi va boshqa ijobiy insoniy xususiyatlarga keng e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda mamlakatimizdagи qo'lyozmalar saqlash fondlarida shoirning "Ibratnama" ("Dahmai shohon"), "Imomlar qissasi", "Yusuf va Zulayho", "Vafotnama" (Muhammad (s.a.v.) avlodlari vafotnomasi), "Shoh Jarir qissasi", "Maqtulnama", "Qissai Ibrohim ibn Muhammad (s.a.v.)", "Qissai Karbalo", "Qissai chahoryor va hazrat Imom Hasan va Imom Husayn", "Qiyomatnama", "Arvochnoma", "Qissai Muhammad Hanifa", "Qissai Fotimai Zahro", "Qissai vafoti Abu Bakr va Ali Akbar", "Qissai Barx sarmast", "Qissai Ayyub", "Mavludnama", "Me'rojnama", "Qissai joyi sahaba", "Qissai fazilati ramazon", "Qissai hazrati Ibrohim va Ismoil alayhissalom" kabi qator asarlari yuzlab nusxalari saqlanmoqda. Bundan tashqari aholi qo'lida ham ushbu qissalarning ko'plab nusxalari mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, mazkur qissalar tarkibida shoир qalamiga mansub juda ko'plab muxammaslarga duch kelish mumkin. Bularning barchasi Shoh Hakim Xolis Toshkandiyo o'z vaqtida taniqli ijodkor bo'lgani, Toshkent adabiy muhiti va Turkiston hududi aholisi orasida o'z asarlari bilan tanilgan shoirlardan biri bo'lganini isbotlaydi.

15 Юсуф ва Зулайхо. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар бўлими. Инв. рақами: 8924/1. 138-6.

16 Юсуф ва Зулайхо. СамДУ илмий кутубхонаси нодир китоблар бўлими. Инв. рақами: 1008774. 2-с.

17 ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар бўлими. Инв. рақами: 6350.

18 ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар бўлими. Инв. рақами: 1361.

О КАЧЕСТВЕ ПЕРЕВОДОВ РУССКИХ СЛОВ И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Абдукарим Сулайманович Мусаев – д.ф.ф.н., и.о.профессор, Джизакского государственного педагогического университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические особенности, трудности, возникающие при переводе фразеологизмов, паронимов, приёмы их перевода с русского на узбекский.

Annotasiya: Ushbu maqolada frazeologik birlikmalar, paronimlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan lingvistik xususiyatlar, qiyinchiliklar, ularni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish usullari ko'rib chiqilgan.

Abstract: This article discusses linguistic features, difficulties that arise when translating phraseological units, paronyms, and methods of translating them from Russian into Uzbek.

Ключевые слова: фразеосочетание, фразеологизм, трудности перевода, приёмы перевода

Kalit so'zlar: frazeologik birikmalar, ibora, frazeologizm, tarjima qiyinchiliklari, tarjima usullari.

Keywords: phrase combination, phraseological unit, translation difficulties, translation techniques

В течение последнего столетия узбекский язык находился и продолжает находиться под сильным влиянием русского языка в силу разных политических, экономических и других причин. Эта ситуация имеет как положительные, так и отрицательные последствия, и об этом можно долго рассуждать. Иногда этот факт приводит к печальным ситуациям, когда состояние и развитие узбекского литературного языка подвергается негативному влиянию из-за некорректности перевода русских фразеосочетаний и даже слов, что не может не вызывать раздражительность и озабоченность большой части нашего общества.

Мы не будем углубляться в способы перевода, которыми обычно пользуются переводчики. В статье речь пойдет о "переведённых", возможно, некорректно на узбекский язык фразеологизмах, фразеосочетаниях и которые, можно утверждать, вошли или находятся в стадии вхождения в лексику современного узбекского языка и которыми активно пользуются журналисты в средствах массовой информации. То есть, такие обороты, которые у всех на слуху.

В теории переводов фразеологии формируется наибольшее количество концепций, подходов и взаимоисключающих точек зрения, что свидетельствует о неиссякаемом интересе

к этой своеобразной сфере языка, уходящей корнями в глубокую древность и наиболее явно, ярко и образно отражающей культуру и менталитет, духовные и нравственные ценности, а также быт и социальную организацию каждого этноса.

Фразеология наиболее полно отражает то своеобразие языков, которое рассматривается в качестве внутренней формы языка. В то же время в грамматическом оформлении фразеологизмов в полной мере отражается типологическая характеристика данного языка и прежде всего особенности его грамматической системы. Несмотря на огромное количество работ по всем аспектам фразеологии, в данной лингвистической отрасли содержится немало нерешенных проблем. Они связаны с границами фразеологии (по линии соотношения фразеологии и паремиологии, а также разграничения свободных и фразеологически связанных сочетаний), о критериях выделения фразеологической единицы (ФЕ), о разных типах классификации ФЕ и их соотношении, о варьировании фразеологических единиц.

При этом необходимо помнить о том, что "при переводе фразеосочетаний задача переводчика заключается не только в том, чтобы верно передать её смысл, но и отразить эмоционально-экспрессивные характеристики, оценочную коннотацию, функционально-